



UDK: 413.164:37(045)

Nurtoy ISLAMOV,
Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

Qarshi davlat universiteti dotsenti U.Yoziyeva taqrizi asosida

ATAMALAR MAZMUNINI TUSHUNISHNING PEDAGOGIK SHART - SHAROITLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarining o'quv faoliyati jarayonida atamalar mazmunini tushunishning pedagogik shart-sharoitlari, ilmiy-kasbiy terminologiyani o'zlashtirish jarayonida har bir komponentning o'rnini ochib berish orqali uning axborot, refleksiv va kommunikativ funksiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarining mutaxassislikka oid atamalarni bilish darajasi "Didaktik atamalarni farqlash" metodi orqali tekshirib ko'rilgan.

Kalit so'zlar: Didaktika, atama, didaktik atama, terminologik kompetensiya, axborot funksiyasi, refleksiv funksiya, kommunikativ funksiya, xotira, idrok, tushunish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПОНИМАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В статье анализируются педагогические условия понимания содержания терминов в процессе учебной деятельности студентов, информационные, рефлексивные и коммуникативные функции каждого компонента в процессе овладения научной и профессиональной терминологией. Также по методике «Дифференциация дидактических терминов» проверялся уровень знания терминов специальности студентами.

Ключевые слова: Дидактика, термин, дидактический термин, терминологическая компетентность, информационная функция, рефлексивная функция, коммуникативная функция, память, восприятие, понимание.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR UNDERSTANDING THE CONTENT OF TERMS

Annotation

In the article, the educational conditions of students' understanding of the content of terms, the place of each component in the process of mastering scientific and professional terminology, and its informational, reflexive and communicative functions are analyzed in the article. Also, the level of knowledge of the terms of the specialty of the students was checked by the method of "Differentiation of didactic terms".

Key words: Didactics, term, didactic term, terminological competence, information function, reflexive function, communicative function, memory, perception, understanding.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarining didaktik atamalarni tushunishi va tushunchalarning ahamiyatini tahlil qila olishi zarur ko'nikmalardan biri hisoblanmoqda. Chunki professional kasbiy sifatlariga ega bo'lish uchun har bir ta'lim oluvchi shaxs sohasiga oid didaktik atamalarni ilmiy tilda sharhlay olishi lozim.

Nazariy jihatdan materialni tushunish, uni keyingi qayta ishlash va esda saqlash bosqichi xotira va fikrlash jarayonlari bilan belgilanadi. Xotira insonning o'tmishdagi barcha tajribalarini eslab qolish, saqlash, takrorlash va tan olishning aqliy jarayoni sifatida ta'riflanadi. A. Bine va K. Byuler ilmiy ishlarida ongli tushunilgan material tushunmay yodlashdan ko'ra yaxshiroq esda qolishini qayd etgan [5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fikrlash jarayoni nafaqat o'quv axborotlarni tushunish va qayta ishlashni ta'minlaydi, balki materialni takrorlash va vazifalarni hal qilishda muhim rolni o'ynaydi. Psixologlarning fikricha, atamalarni o'zlashtirish jarayonida fikrlashning roli beqiyosdir, fikrlash ma'lumotni yodlash bosqichida boshlanadi, so'ngra o'zlashtirishning barcha bosqichlariga aqliy operatsiyalar hamroh bo'ladi. Rossiya olimlari (S.L.Rubinshteyn (1958), N.A.Menchinskaya (1960), B.G. Ananyev (1968), A.N.Leontyev (1972), Ya.A.Ponomarev (1975), L.S.Vigotskiy (1982), A.M.Matyushkin (1982), D. B. Bogoyavlenskaya (1984), P. Y. Galperin (1998) va boshqalar) axborotni o'zlashtirishda fikrlash va aqliy operatsiyalarning rolini o'rganishga katta hissa qo'shdilar [2].

S.L. Rubinshteina, A.N. Leontyeva, J. Piaget, P.Ya. Galperina, N.A. Menchinskaya tadqiqotlarida bir qator aqliy operatsiyalar aniqlandi va tavsiflandi, masalan, tahlil, sintez, birdek bilish, farqlash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, orientatsiya, tanlash, tasniflash, seriyalash, kodlash, qayta kodlash va hokazo [3]. Zamonaviy xorijiy ta'lim psixologiyasining asosiy

mavzularidan biri ham ta'lim jarayonida bilish jarayonlarni ko'rib chiqish bo'lib, ular orasida fikrlash jarayonlari dominant rol o'ynaydi [4].

Talabalarining didaktik terminlarni o'zlashtirish natijasini baholashda biz terminologik kompetentlikning tarkibiy-funksional modeliga va namoyon bo'lish ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan tizimiga, shuningdek, terminologik kompetentlikning har bir komponenti darajalarining xususiyatlariga tayandik [1].

Bo'lajak mutaxassisning kasbiy yoki umummadaniy kompetentligining bir qismi bo'lgan terminologik kompetentlik ilmiy-kasbiy terminologiyani o'zlashtirish jarayonida har bir komponentning o'rnini ochib berish orqali uning rivojlanishida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Axborot funksiyasi – talabaga nafaqat ilmiy-kasbiy axborot mazmunida erkin harakatlanish, xususan o'quv-kasbiy matnda yoki muloqotda atamalarni tanib olish va har bir tushunchaning asosiy belgilarini bilish va unga ta'rif berish qobiliyati asosida o'quv-kasbiy muammolarni hal qilish uchun ularni maqsadli tanlash, balki shuningdek, o'zining tushunchaviy-terminologik bilimlari tarkibini to'ldirish imkonini ham beradi.

2. Refleksiv funksiya – nafaqat o'quv-kasbiy matnda (og'zaki va yozma) qo'llaniladigan atamaning ma'nosini tushunish va tushuntirishni va uning tushunchaviy-terminologik tizimdagi o'rnini anglashni, balki o'quv topshiriqlarini va kasbiy muammolarni hal qilish maqsadida vositalarni tanlovi argumentatsiyasini ham ta'minlaydi.

3. Kommunikativ funksiya – bo'lajak mutaxassisning ta'lim-kasbiy kommunikatsiya sharoitida ilmiy-kasbiy terminologiyadan muvaffaqiyatli foydalanishini, ilmiy-kasbiy axborot va tajribalarni uzatishni, o'quv va kasbiy muammolarni muhokama qilish jarayonida samarali aloqa va dialogni, shuningdek, o'zining ilmiy-kasbiy tilining rivojlanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda foydalaniladigan o'quv-kasbiy xarakterdagi vazifalar talabalarda terminologik kompetentlikning har bir komponentining namoyon bo'lish darajasini didaktik terminologiyani o'zlashtirishning har bir bosqichida (tanish, tushunish, qo'llash) ularning ko'rsatkichlarining [1] namoyon bo'lishini baholash orqali

o'rganishga qaratilgan. Obyektiv baholash uchun 5 ballik shkala bo'yicha "3", "4" va "5" baholariga mos keladigan va pedagogik vazifalar tizimini bajarishda talabada barcha 9 ta terminologik kompetentlikning namoyon bo'lish xususiyatlarini aks ettiruvchi uchta – past, o'rtacha va yuqori darajadan foydalanildi (1-jadval).

1-jadval. Talabalarda terminologik kompetentlik komponentlarining darajalari

Parametr	Daraja		
	Past	O'rtacha	Yuqori
Terminologik kompetentlikning fan-bilish komponenti			
Tegishli fan sohasi atamani tanish	turli fan sohalari atamaları farqlanmaydi	bir fan sohasida atamalarni tanlashda xatolar mavjud	turli fan sohalari atamaları aniq farqlanadi
Atamaning ta'rifini takrorlash	Atamaning umumiy ishlatiladigan yoki metaforik ma'nosi ochib beriladi	Aniqlanadigan obyekt tegishli bo'lgan fanlarning faqat sinfi ko'rsatiladi, tur belgilari ochib berilmaydi	Turkum-tur xususiyatlari aniq ochib beriladi, qo'llaniladigan atamaning aniq ma'nosi beriladi
Axborot manbasi konteksti asosida atamaning ma'nosini tushunish	axborot mazmunini idrok etish mavjudligi bilan murakkablashadi	Axborot mazmuni umuman o'zlashtirilgan, notanish atamalar kontekstdan ma'lum	Axborot mazmuni to'liq o'zlashtirilgan, ishlatiladigan atamalarni tushunish qiyinchilik tug'dirmaydi
Terminologik kompetentlikning intellektual-refleksiv komponenti			
Atamaning terminologik guruhga mansubligini aniqlash	Atama va atamalar guruhi mos kelmaydi	Atamani biron-bir guruhga belgilashda qiyinchiliklar mavjud (bir nechta guruhlarga kiritiladi, noto'g'ri kiritiladi)	Atamaning muayyan guruhga mansubligi aniq belgilanadi
Muammoning (mavzuning) tezausini yaratish	Tezaus assosiativ qator ko'rinishida qurilgan umumiy qo'llaniladigan leksika bilan ifodalanadi	Tezaus ham umumiy qo'llaniladigan, ham maxsus leksika bilan ifodalanadi, fan sohasi atamaları ajratib ko'rsatilmaydi	Tezaus faqat maxsus leksika bilan ifodalanadi, fan sohasi atamaları alohida guruhga ajratilgan
Atamalar o'rtasida mantiqiy-leksikologik bog'lanishlarni qurish	Atamalar orasidagi bog'lanishlar aniqlanmagan yoki chiziqli turga ko'ra qurilgan	Atamalar orasidagi bog'lanishlar daraxt turida qurilgan, ikki va uch darajali bog'lanishlar mavjud	Atamalar orasidagi bog'lanishlar murakkab, ko'p bosqichli tabiatga ega, tizimning o'zagi aniq belgilangan
Terminologik kompetentlikning kommunikativ-nutq komponenti			
Kasbiy muhim axborotni idrok etishda qiyinchiliklarning mavjudligi (yo'qligi)	Notanish atamalar mavjudligi sababli kasbiy muhim axborotni idrok etishda sezilarli qiyinchiliklar mavjud	Notanish atamalar mavjudligi sababli kasbiy muhim axborotni idrok etishda kichik qiyinchiliklar mavjud	Kasbiy muhim axborotni idrok etishda qiyinchiliklar yo'q
Xabarlarini tuzishda qiyinchiliklarning mavjudligi (yo'qligi)	Matnli xabarlarini tuzishda sezilarli qiyinchiliklar mavjud	Matnli xabarlarini tuzishda kichik qiyinchiliklar mavjud	Matnli xabarlarini tuzishda qiyinchiliklar yo'q
Kasbiy muammolarni muhokama qilishda hamkasblar bilan aloqa o'rnatishda qiyinchiliklarning mavjudligi (yo'qligi)	Noadekvat atamalarni qo'llash sababli hamkasblar bilan aloqani o'rnatishda sezilarli qiyinchiliklar mavjud	Ishlatiladigan bir qator kasbiy atamalarni turlicha tushunish sababli hamkasblar bilan aloqani o'rnatishda kichik qiyinchiliklar mavjud	Ishlatiladigan kasbiy leksikani bir xil tushunish sababli hamkasblar bilan aloqani o'rnatishda qiyinchiliklar yo'q

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida talabalarining terminologik kompetentlik komponentlarining fan-bilish darajalarini aniqlash maqsadida maxsus topshiriq ishlab chiqdik. Bunda talabalarining fan-bilish komponentini (FB komponenti) aniqlash maqsadida "Didaktik atamalarni farqlash" metodidan foydalandik. Metod 70 ta atamalar ro'yxatidan iborat tushunchalarni o'z ichiga olgan bo'lib, shundan 50 tasi didaktik atama, qolgan 20 tasi esa turdosh fanlarga oid atamalardir. Talabalarining vazifasi belgilangan vaqt ichida topshiriqdagi didaktik atamalarni belgilab chiqishdan iborat.

Baholash mezonini sifatida didaktik atamalarni boshqa fan sohalariidagi atamalardan aniq farqlash xizmat qildi:

"5" – ajratib ko'rsatilgan atamalardan 65 tadan ortig'i didaktik atamalarga tegishli, turli fan sohalariga oid atamalar aniq "Didaktik atamalarni farqlash" metodi natijalari (T=50).

farqlangan (boshqa fan sohasidan 2-3 tadan ko'p bo'lmagan atamalar didaktik terminologiyaga kiritilgan);

"4" – ajratib ko'rsatilgan atamalardan 55 tadan 64 tagachasi didaktik atamalarga tegishli, boshqa fan sohasidagi 4-6 ta atama didaktik terminologiya ro'yxatiga kiritilgan;

"3" – ajratib ko'rsatilgan atamalardan 45 tadan 54 tagachasi didaktik atamalarga, 7-8 tasi boshqa fan sohasiga tegishli;

"2" - ajratilgan atamalardan faqat 44 tadan pas didaktika sohasiga tegishli.

Quyidagi 2-jadvalda talabalarining terminologik kompetentlik komponentlarining fan-bilish darajalarini aniqlash maqsadida qo'llangan "Didaktik atamalarni farqlash" metodining natijalari keltirilgan.

№	Ko'rsatkichlar	Baholash mezonlari.			
		Yuqori daraja "5" baho	Yaxshi daraja "4" baho	O'rtacha daraja "3" baho	Past daraja "2" baho
1	To'g'ri belgilangan atamalar soni				
2	65-70 ta	18 %			
3	55-64 ta		34 %		
4	45-54 ta			32 %	
5	44 tagacha				16 %

Metodikani qo'llash jarayonida talabalarining atamalarni farqlash ko'rsatkichlari quyidagi natijani ko'rsatdi. Topshiriqni bajarish jarayonida 65 tadan 70 tagacha bo'lgan atamalarni to'g'ri belgilagan talabalar 18 % ni tashkil qildi. Talabalarining 34 % 55 tadan 64 tagacha bo'lgan atamalarni to'g'ri belgilab yaxshi natijani ko'rsatdi. 32 % talabalar 45 tadan 54 tagacha bo'lgan atamalarni to'g'ri belgilab o'rtacha natijani ko'rsatdi. Talabalarining 16 % 44 tagacha bo'lgan atamalarni to'g'ri belgilab past natijani ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar. Talabalar terminologik kompetensiyaga ega bo'lish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

Mutaxassislikka oid atamalar mohiyatini tushunishi;

Atamalarni og'zaki va yozma nutq orqali erkin bayon qila olishi;

Tanlagan sohasiga oid atamalarni boshqa fanga oida atamalardan farqlay olishi;

Atamalarni farqlash ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan metodikalar orqali o'z ko'nikmalarini sinovdan o'tkazib borishlari maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqotda "terminologik kompetentlik" tushunchasi nominal xarakterga ega, chunki talabalarining, ayniqsa, kelajakda o'qituvchi bo'lishni rejalashtirmayotgan talabalarining "Didaktika" sohasida terminologik kompetentligi shakllanganlik darajasining past natijani ko'rsatishi nisbiy xarakterga ega. Chunki, nazariy sharhda ta'kidlanganidek, bo'lajak pedagogning terminologik kompetentligi uning kasbiy kompetentligiga kiradi, kelajakda kasbiy-pedagogik faoliyatni rejalashtirmagan talaba uchun u umumdamaniy kompetentlikka kiradi.

ADABIYOTLAR

1. Бордовская, Н.В. Терминологическая компетентность специалиста: проявление и уровни развития / Н.В. Бордовская, Е.А. Кошкина // Человек и образование. - 2016. - №3 (48). - С. 4 - 11.
2. Гнедых, Д.С. Эффективность усвоения учебной информации студентами в условиях электронного обучения: дис. канд. психол. наук: 19.00.07 / Д.С. Гнедых; С-Петербург. гос. ун-т. - СПб, 2015. - 237 с.
3. Ительсон, Л.Б. Учебная деятельность. Ее источники, структура и условия / Л.Б. Ительсон // Лекции по современным проблемам психологии обучения. - Владимир, 1972. - С. 79-84.
4. Soatov A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. - Qarshi: Fan va ta'lim. 2022. - 128-137 b.
5. Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии. / Под ред. И.И. Ильясова, В.Я. Ляудис. - М.: Изд-во Моск. ун-та., 1980 - 292 с.